

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a, 2019-yilning yanvar – sentabrda Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 041,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 - yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga o'sdi.

2019 - yil yanvar – sentabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 6 191,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,5 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yil yanvar-sentabriga nisbatan % da
	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr	
<b>I. YAHM</b>	<b>12 949,1</b>	<b>16 041,9</b>	<b>105,8</b>
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 596,9	15 368,7	105,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	352,2	673,2	108,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>12 596,9</b>	<b>15 368,7</b>	<b>105,7</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 951,2	7 986,6	103,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 725,1	2 361,8	116,0
sanoat	776,4	1 046,2	107,6
qurilish	948,7	1 315,6	123,0
<b>Xizmatlar</b>	<b>3 920,6</b>	<b>5020,3</b>	<b>105,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 243,7	1 464,8	104,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	622,4	684,8	104,6
boshqa xizmatlar	2 054,5	2 870,7	106,1

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 52,0 %), sanoat – 107,6 % (6,8 %), qurilish – 123,0 % (8,6 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 104,6 % (9,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 104,6 % (4,5 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 106,1 % (18,6 %) ni tashkil etdi.


### 2019-yil yanvar-sentyabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



*iqtisodiy faoliyat turlari*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) xajmi umumiy YaHMning 95,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,2 % ini tashkil etdi.


### **Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)**




YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilda, qishloq xo'jaligi tarmog'i 52,0 % ni, sanoat (qurilishni qo'shgan holda) 15,4 % ni, xizmatlar 32,6 % ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentyabr



2019 yil yanvar-sentyabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

YAHMning xizmatlar sohasining tarkibidagi ulushi, Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha ulushi 9,5 % (2018 yil 9,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,5 % (4,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 18,6 % (16,3 %)ni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yiǵma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun masul: D.Bo'riyeva  
Tel: (0371) 230-85-80